

**O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi**

***60410400 – Moliya va moliyaviy texnologiyalar
bakalavriat ta’lim yo‘nalishining malaka talablari***

Toshkent-2023

YEP OÝMI

БИРСАМ № 344

4 08 2023

ISHLAB CHIQILGAN:

- Toshkent moliya instituti.
- Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil «+»
OB dagi 344 - sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

| T/r | bet |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| 1. 60410400 – <i>Moliya va moliyaviy texnologiyalar</i> bakalavriat ta’lim yo‘nalishining umumiy tavsifi | 4 |
| 1.1. Qo‘llanish sohasi | 4 |
| 1.1.1. 60410400 – <i>Moliya va moliyaviy texnologiyalar</i> ta’lim yo‘nalishi malaka talabining qo‘llanilishi..... | 4 |
| 1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari..... | 4 |
| 1.2. 60410400 – <i>Moliya va moliyaviy texnologiyalar</i> ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining tavsifi | 4 |
| 1.2.1. 60410400 – <i>Moliya va moliyaviy texnologiyalar</i> ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatining sohalari | 4 |
| 1.2.2. 60410400 – <i>Moliya va moliyaviy texnologiyalar</i> ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining obyektlari | 4 |
| 1.2.3. 60410400 – <i>Moliya va moliyaviy texnologiyalar</i> ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining turlari | 5 |
| 1.2.4. 60410400 – <i>Moliya va moliyaviy texnologiyalar</i> ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrarning kasbiy vazifalari | 5 |
| 2. 60410400 – <i>Moliya va moliyaviy texnologiyalar</i> ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrarning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar | 6 |
| 2.1. Umumiy kompetensiyalar | 6 |
| 2.2. Kasbiy kompetensiyalar | 6 |
| 2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta’minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar | 8 |
| 2.3.1. 60410400 – <i>Moliya va moliyaviy texnologiyalar</i> bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim dasturinnig tuzilishi | 9 |
| 2.4. Kvalifikatsiya | 10 |
| Bibliografik ma’lumotlar | 11 |
| Kelishuv varag‘i | 12 |

1. 60410400 – Moliya va moliyaviy texnologiyalar bakalavriat ta’lim yo‘nalishining umumiy tavsifi

60410400 – Moliya va moliyaviy texnologiyalar ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrilar tayyorlash kunduzgi, sirtqi va kechki ta’lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta’lim shakllari bo‘yicha o‘qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta’limda bakalavriat dasturining me’yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo‘llanish sohasi.

1.1.1. 60410400 – Moliya va moliyaviy texnologiyalar ta’lim yo‘nalishi Malaka talabining qo‘llanilishi.

Malaka talabi **60410400 – Moliya va moliyaviy texnologiyalar** ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrilar tayyorlovchi barcha oliy ta’lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilarini:

- mazkur ta’lim yo‘nalish bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas’ul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o‘qituvchilar;
- ta’lim yo‘nalishining o‘quv rejasi va fan dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta’lim tashkilotining talabalari;
- bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalarini;
- ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatlari davlat organlari;
- oliy ta’lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;
- oliy ta’lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatlari davlat organlari;
- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;
- oliy ta’lim tashkilotlariga o‘qishga kirayotgan abiturientlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 60410400 – Moliya va moliyaviy texnologiyalar ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrilar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. 60410400 – Moliya va moliyaviy texnologiyalar ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrilar kasbiy faoliyatining sohalari.

60410400 – Moliya va moliyaviy texnologiyalar – “Biznes va boshqaruv” ta’lim sohasiga oid yo‘nalish bo‘lib, u davlat moliyasi, xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliyasi, uy xo‘jaligi moliyasi, davlat byudjeti, mahalliy byudjet, ijtimoiy ta’minot, byudjetdan moliyalashtirish, g‘aznachilik, davlat xaridi, davlat maqsadli fondlari, moliyaviy rejalashtirish, moliyaviy nazorat, moliya bozoridagi operatsiyalar, moliyaviy risklarni boshqarish, aksiyadorlik jamiyatlar moliyasi, moliya-sanoat guruhlari va transmilliy korporatsiyalar faoliyat mexanizmi, xolding kompaniyalar moliyasi, mas’uliyati cheklangan jamiyatlar moliyasi, qo‘shma korxonalar moliyasi, qimmatli qog‘ozlar bozorida faoliyatni tashkil etish, moliya bozoridagi operatsiyalarni yuritish, o‘zaro hisob-kitoblarni tashkil etish, korporativ tuzilmalar moliyaviy resurslarini boshqarish bilan bog‘liq kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. 60410400 – Moliya va moliyaviy texnologiyalar ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrilar kasbiy faoliyatlarining obyektlari:

- O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda uning tarkibiy va hududiy bo‘linmalari;
- davlat moliyaviy resurslarini boshqarish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlar;
- moliyaviy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi va nazorat qiluvchi davlat va nodavlat tashkilotlari;

- byudjet tashkilotlari;
- davlat maqsadli jamg'armalari;
- investitsiya faoliyati bilan shug'ullanuvchi tashkilot, muassasalar;
- O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo'mitasi va uning hududiy bo'limlari;
- O'zbekiston Respublikasi Davlat Bojxona Qo'mitasi va uning hududiy bo'limlari;
- O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, tijorat banklari, jismoniy va yuridik shaxslarga xizmatlar ko'rsatuvchi nobank tashkilotlar, pul muomalasi, kassa, hisob-kitob faoliyati bilan shug'ullanuvchi bo'limlar;
- davlat korxonalar;
- ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan yuridik shaxslar;
- kriptobirjalar;
- sug'urta kompaniyalari;
- elektron to'lov tizimlari;
- elektron tijorat subyektlari;
- lizing kompaniyalari;
- fond birjasi va birjadan tashqari bozorlar, investitsiya fondlari va kompaniyalari, depozitariylar, investitsion vositachilik xizmatlari ko'rsatuvchi kompaniyalar, valyuta birjasi, tovar-xom ashyo birjasi;
- moliya-sanoat guruhlari;
- transmilliy korporatsiyalar;
- aksiyadorlik kompaniyalari;
- reyting agentliklari;
- moliyaviy nazoratni nazoratni amalga oshiruvchi organlar va tashkilotlari;
- moliya bozorini tartibga soluvchi davlat organlari;
- moliyaviy konsalting firmalari;
- boshqa moliyaviy-iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi korxona, tashkilot va muassasalar hisoblanadi.

60410400 – Moliya va moliyaviy texnologiyalar ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavriat bitiruvchilari pedagogik qayta tayyorlashdan o'tgandan keyin, professional ta'lim muassasalarida ta'limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o'qitish bo'yicha pedagogik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'ladi. Bakalavriatning kasb ta'limi yo'nalishlari bundan mustasno.

1.2.3. *60410400 – Moliya va moliyaviy texnologiyalar ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining turlari:*

- ilmiy-tadqiqot;
- ishlab chiqarish;
- tashkiliy-boshqaruv.

1.2.4. *60410400 – Moliya va moliyaviy texnologiyalar ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrлarning kasbiy vazifalari.*

60410400 – Moliya va moliyaviy texnologiyalar ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Tashkiliy-boshqaruv hamda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatida:

- davlat va korporativ tuzilmalar faoliyatida moliyaviy boshqaruvning tartib va tamoyillarini bilish;
- moliya tizimiga doir qonunchilikka muvofiq boshqaruv tamoyillarini bilish;
- davlat va korporativ tuzilmalarda moliyaviy faoliyatni tashkil qilish va samarali boshqarish;
- moliyani boshqarish strategiyasini bilish va amaliyotda qo'llay olish;
- moliyaviy faoliyatga doir muammolarini aniqlash va yechimlarini amaliyotga tadbiq etish;
- byudjet mablag'lardan foydalanish samaradorligini oshirish uchun amalga oshiriladigan chora-tadbirlarni tashkil etish va tayyorlash, byudjet hisobini yuritish va hisobotini tuzish;
- moliyaviy texnologiyalar, moliya va sug'urta bozori, kredit tashkilotlari, byudjet-soliq sohasida qo'llaniladigan turli tartib, usullar, standartlar ishlab chiqishda qatnashish;
- moliyaviy texnologiyalar sohasida strategik moliyaviy qarorlar qabul qilishda strategik moliyaviy tahlil metodlarini qo'llay olish;
- moliya bozorida moliyaviy texnologiyalar asosida operatsiyalarini muvaffaqiyatli tashkil etish;
- moliyaviy texnologiyalar orqali xalqaro operatsiyalarini muvaffaqiyatli tashkil etish va amalga oshirish;
- davlat hokimiysi organlarida moliyaviy texnologiyalarni rivojlantirish bo'yicha hujjatlarni tayyorlashda ishtirok etish, qabul qilingan hujjatlar ijrosini ta'minlash;
- davlat va korporativ tuzilmalarning moliyaviy faoliyati va u bilan bog'liq bo'lgan O'zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlarini bilishi va ulardan o'z faoliyatida foydalana olish;
- moliya va sug'urta bozori, kredit tashkilotlari, byudjet-soliq sohasida qo'llaniladigan turli tartib, usullar, standartlar ishlab chiqishga qatnashish;
- byudjetni yagona hisob orqali boshqarishni, byudjet defitsitini moliyalashtirish manbalarini, byudjet daromadlari va xarajatlari ijrosini tashkil etish bo'yicha moliya organlarida ish yuritish;
- korporativ moliyaviy strategiyani ishlab chiqish, baholash usullarini bilish va qo'llash;
- moliya bozorida moliyaviy texnologiyalar qo'llanilishini davlat tomonidan tartibga solishi;
- kriptovalyutalar muomalaga chiqarish va ular muomalasini tashkil etish;
- raqamli bank xizmatlarini joriy eta olish va ko'rsata olish;
- sug'urta kompaniyalarida onlayn sug'urta xizmatlarini joriy eta olish;
- elektron to'lov tizimlaridan foydalana olish va xizmat ko'rsatish;
- elektron pul o'tkazmalari tizimidan foydalana olish va xizmatlar ko'rsatish;
- fond birjasi va birjadan tashqari bozorlarda elektron savdo tizimlari orqali qimmatli qog'ozlar savdolarida ishtirok eta olish va savdolarni amalga oshirish;
- elektron savdo tizimlarida savdolarni yo'lga qo'ya olish;
- depozitariylarda elektron kastodian xizmatlarini joriy etish va ko'rsata olish;
- elektron investitsion vositachilik xizmatlarini ko'rsata olish;
- valyuta birjasida elektron tarzda valyuta savdolarini amalga oshira olishi;
- tovar-xom ashyo birjasida onlayn xaridlar va sotuvlarni amalga oshira olishi va savdolar bo'yicha xizmatlar ko'rsata olishi;
- tijorat banklarida moliyaviy operatsiyalar bo'yicha onlayn xizmatlardan foydalana olishi va xizmatlar ko'rsatishi;

- aksiyadorlik jamiyatlarida moliya institutlari bilan molivayi texnologiyalar vositasida munosabatlar o'rnata olishi;
- davlat xaridlari samaradorligini oshirish yo'llarini ishlab chiqish.

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

- kichik ilmiy xodim ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirishda oshirishda moliya tizimi va uning tarkibiy bo'g'inlarining rivojlanish ko'rsatkichlariga baho berish, sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning ustuvor yo'naliishlari mohiyatini tushunish hamda aniqlangan muammolar yechimini ishlab chiqish;
- byudjetdan moliyalashtirishni takomillashtirishga bag'ishlangan mamlakatdagi va xorijiy davlatlardagi fan-texnika yutuqlari, maxsus adabiyotlar va boshqa ilmiy-texnik axborotlarni o'rganish va tizimlashtirish;
- tarmoqlar va sohalarda natijadorlikka asoslangan moliyalashtirish tizimini ta'minlash borasidagi muammoli mavzular bo'yicha iqtisodiy axborotlarni yig'ish, qayta ishlangan, tahlil qilish va tizimlashtirish ishlarini amalga oshirish;
- internet tarmog'ida eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;
- ilmiy tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;
- ta'limning innovatsion usullarini qo'llagan holda molivayi-iqtisodiy fanlardan o'quv-uslubiy ta'minotni ishlab chiqishda qatnashish;
- tadqiqot natijalari va ishlanmalarni tatbiq etish.

Tadbirkorlik faoliyatida:

- yangi biznes-loyihalarni shakllantirish va amalga oshirish;
- biznesni tashkil etish, biznes-rejalarni ishlab chiqish va amalga oshirish.

2. 60410400 – Moliya va molivayi texnologiyalar ta'lim yo'naliishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;
- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilishi, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlangan va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;
- matematikaning chiziqli algebra, matematik analiz, differensial va integral hisob hamda differensial va chekli ayirmali tenglamalar yordamida ijtimoiy-iqtisodiy sohada qo'llanilayotgan modellarni tizimli o'rganishni tahlil qilish va baholash;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;
- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida tassavvurga ega bo'lish.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

- iqtisodiy kategoriya va qonunlar, iqtisodiy jarayon va hodisalar mohiyatini tushunish, iqtisodiyotni bozor tamoyillari asosida isloh qilish mexanizmlarini bilishi;
- makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, ularni hisoblash orqali pul-kredit, byudjet-soliq va tashqi iqtisodiy siyosatni amalga oshirish yuzasidan ko'nikmalarini shakllantirishi;
- moliyaning mazmun-mohiyati, moliyaviy munosabatlarni samarali tashkil etishning nazariy-amaliy jihatlari va ularni boshqarish usullarini bilishi;
- byudjetdan molialashtirish asoslarini bilishi, funksiya, usul va tamoyillarini chuqur o'rghanishi, moliyaviy qarirlarni qabul qilish va ular ijrosi nazoratini olib borishi;
- iqtisodiy obyektlar va jarayonlarning miqdoriy o'zaro bog'liqligini matematik va statistik metodlar hamda modellar yordamida o'rghanishi;
- biznes jarayonlarini modellashtirish, biznes yuritishning iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlarini baholash, yangi bozor imkoniyatlarini aniqlash va yangi biznes modellarini shakllantirishni bilish;
- iqtisodiyot subyektlarining moliyaviy holatini tahlil qilish hamda moliyaviy ko'rsatkichlarini aniqlashi;
- sug'urtaning mazmun-mohiyati, shakllari, sug'urta faoliyati klassifikatori va sug'urtaning normativ asoslari, risk transferi va transformatsiyasi hamda qoplama to'lovchi bo'yicha sug'urta bozori subyektlari faoliyatining nazariy va amaliy jihatlarini bilishi;
- davlat xaridlari tizimini tadrijiy rivojlanishi, ularni o'rnatish shartlari, xaridlarni amalga oshirish shakllari va davlat xaridlarni tashkil etish mexanizmlarini bilishi;
- pul va bank nazariyasi, amaliyoti va tadrijiy rivojlanish bosqichlari hamda istiqbolini markaziy bank va tijorat banklarining funksional maqsadi va tashkiliy tuzilishini bilishi, aktiv va passiv bank operatsiyalarini qo'llay olishi;
- moliya bozorida moliyaviy texnologiyalar qo'llanilishining nazariy, amaliy asoslarini bilishi, kriptovalyutalar muomalaga chiqarish va ular muomalasini tashkil etish tashkil etish va tartibga solish, resurslarni jalg qilish va ularni joylashtirish, raqamlı bank xizmatlarini joriy eta olish va ko'rsata olishi;
- elektron to'lov tizimlaridan foydalish va xizmat ko'rsatish, elektron pul o'tkazmalari tizimidan foydalanish va xizmatlar ko'rsatish, fond birjasi va birjadan tashqari bozorlarda elektron savdo tizimlari orqali qimmatli qog'ozlar savdolarida ishtiroy etish va savdolarni amalga oshirish, elektron savdo tizimlarida savdolarni yo'lga qo'yish, depozitariylarda elektron kastodian xizmatlarini joriy etish va ko'rsatish, elektron investitsion vositachilik xizmatlarini ko'rsatish, valyuta birjasida elektron tarzda valyuta savdolarini amalga oshirish, tovar-xom ashyo birjasida onlayn xaridlar va sotuvlarni amalga oshirishning nazariy va amaliy jihatlarini bilishi;
- me'yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatida foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish.

2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar:

Talabalar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko'nikmalarini egallashi o'quv rejasiga mantiqiy ketmaketligda kiritiladigan **majburiy va tanlov** fanlarni o'zlashtirish, amaliyotlarni o'tish hamda boshqa o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zaruriy tayanch bilim va ko'nikmlarni ta'minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari – ta'lim yo'nalishi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo'shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabaning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:
 malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi;

2.3.1. 60410400 – Moliya va moliyaviy texnologiyalar bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturinnig tuzilishi:

| Nº | O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari* |
|-------------|-----------------------------------------------------------------|
| 1.00 | Majburiy fanlar |
| 1.01 | O'zbekistonning eng yangi tarixi |
| 1.02 | Falsafa |
| 1.03 | Iqtisodiyot nazariyasi |
| 1.04 | Matematika |
| 1.05 | Iqtisodiyotda axborot kommunikatsion texnologiyalar va tizimlar |
| 1.06 | O'zbek(rus) tili |
| 1.07 | Xorijiy til |
| 1.08 | Dinshunoslik |
| 1.09 | Tadqiqot va akademik rivojlanish ko'nikmalari |
| 1.10 | Moliya asoslari |
| 1.11 | Makroiqtisodiyot |
| 1.12 | Moliyaviy hisob |
| 1.13 | Moliya |
| 1.14 | Moliyaviy bozorlar, institutlar va instrumentlar |
| 1.15 | Davlat moliyasi |
| 1.16 | Statistika |
| 1.17 | Soliqlar va soliqqa tortish |
| 1.18 | Iqtisodiy tahlil |
| 1.19 | Korporativ moliya |
| 1.20 | G'aznachilik |
| 1.21 | Bank ishi |
| 1.22 | Davlat xaridlari |
| 1.23 | Moliyaviy menejment |
| 1.24 | Moliyaviy texnologiyalar |
| 1.25 | Xalqaro moliya asoslari: nazariya va siyosat |
| 1.26 | Moliyaviy risklar |
| 2.00 | Tanlov fanlari |
| 2.00 | Tanlov fanlari |
| | Malakaviy amaliyot |
| | Yakuniy davlat attestasiyasi |

*Mazkur ta'lim yo'nalishi bo'yicha semestrlar kesimida kreditlar miqdori "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar"ga muvofiq Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti va Toshkent moliya instituti tomonidan mustaqil belgilanadi hamda akademik mobillik jarayonida o'zaro tan olinadi.

2.4. Kvalifikatsiya: moliya-iqtisodchi.

Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

moliya, moliyaviy siyosat, moliya tizimi, moliyaviy boshqaruv, moliyaviy nazorat, moliyaviy hisobotlar, moliyaviy ko'rsatkichlar, moliyaviy rejalashtirish, pul oqimlarini boshqarish, moliyaviy menejment, davlat moliyasi, korporativ moliya, xarajatlar smetasi, byudjetdan moliyalashtirish, ijtimoiy ta'minot, davlat byudjeti, byudjet daromadlari, byudjet xarajatlari, byudjet jarayoni, byudjet tizimi, byudjetlararo munosabatlar, byudjet defitsiti, byudjet profitsiti, byujetdan tashqari davlat maqsadli jamg'armalari, soliq, sug'urta, davlat krediti, davlat qarzları, to'lovga layoqatlilik, investitsiya, qimmatli qog'oz, lizing, xalqaro moliya, to'lov balansi, valyuta operatsiyalari, xalqaro hisob kitoblar tizimi, moliya bozori, uy xo'jaliklari moliyasi, g'aznachilik, yuridik majburiyatlar, moliyaviy majburiyatlar, davlat xaridlari, byudjet buyurtmachilari, korporativ buyurtmachilar, elektron do'kon, elektron auksion, tanlov va tender savdolari, raqamli iqtisodiyot, kriptobirja, raqamli bank, raqamli sug'urta, elektron tijorat, investitsiyalar va innovatsiyalar, axborot-kommunikativ tizimlar, elektron to'lov tizimi.

**Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari hamda kadrlar
iste'molchilari**

ISHLAB CHIQILDI:

Toshkent moliya instituti




Rektor

2023 yil « ____ »

M.O.

T.Teshabayev

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti



Rektor

2023 yil « ____ »

K.Sharipov

KELISHILGAN:

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi Oliy ta'lifni rivojlantirish
tadqiqotlari markazi




Direktor

2023 yil « ____ »

M.O.

Sh.Yakubov

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va
moliya vazirligi huzuridagi G'aznachilik
xizmati qo'mitasi



Rais o'rinosari

2023 yil « ____ »

M.Atadjanov

"Poytaxt bank" AJ

Boshqaruvi Raisi

M.Taxirov

2023 yil « ____ »



M.O.

Toshkent moliya instituti 70410401 – Davlat moliyasi va xalqaro moliya magistratura mutaxassisligi malaka talablari va o'quv rejasining ishlab chiquvchilar, turdosh oly ta'lif muassasalarini va kadrlar iste'molchilari o'rtaida

KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent shahri

" " 2023 y.

Biz, quyida imzo chekuvchilar – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi G'aznachilik xizmati qo'mitasi Rais o'rribosari M. Atadjanov, "Poytaxt bank" AJ Boshqaruvi Raisi M. Taxirov, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori K. Sharipov va Toshkent moliya instituti rektori T. Teshabayev bilan birgalikda ishlab chiqilgan quyidagi magistratura mutaxassisligi malaka talablari va o'quv rejasini mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

70410401 – Davlat moliyasi va xalqaro moliya magistratura mutaxassisligi.

Malaka talablari hamda o'quv rejaning ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oly ta'lif tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 5847-ton farmoni, 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lif tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-ton, 2017-yil 27-iyuldagagi "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3151-ton, 2018-yil 5-iyundagi "Oliy ta'lif muassasalarida ta'lif sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-ton, 2018-yil 19-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3946-ton, 2020-yil 24-fevraldagagi "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4611-ton Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 15-iyundagi "2023/2024 o'quv yili uchun davlat oly ta'lif muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to'g'risida"gi F-31-ton Farmoyishi hamda oly ta'lif sohasini tartibga soluvchi boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga assoslangan.

Mazkur malaka talablari va o'quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste'molchilari tomonidan qo'yilgan talablar ham inobatga olingan.

70410401 – Davlat moliyasi va xalqaro moliya magistratura mutaxassisligi bo'yicha malaka talablari o'quv reja va fan dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o'quv rejani o'rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va
molika vazirligi huzuridagi G'aznachilik xizmati
qo'mitasi Rais o'rribosari


M. Atadjanov

"Poytaxt bank" AJ Boshqaruvi Raisi


M. Taxirov

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori


K. Sharipov

Toshkent moliya instituti rektori


T. Teshabayev